



QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT



# milliy tiklanish

№ 10 (1242) 2024-yil 20-mart, chorshanba

Adodi - 5 263

www.milliytiklanish.uz

fb.com/milliytiklanish.gazetasi l.me/milliytiklanish



## Bugungi Sirdaryo kechagi Sirdaryo emas

Bugungi o'zgarishlar, bunyodkorlik shukuhi sirdaryoliklar hayotiga ham yangicha mazmun kiritmoqda. Zero, viloyatda so'nggi 7 yilda salmoqli natijalarga erishildi. Nafaqat viloyat markazi, balki eng olis qishloqlar ham zamonaviy qiyofa kasb etdi. Odamlarni yillar davomida o'ylantirib kelgan yo'l, ichimlik suvi, elektr energiyasi bilan bog'liq masalalar izchil hal etilyapti. Bu yutuqlar negizida esa chuqur o'ylangan siyosat, xalqimizning fidokorona mehnati turibdi. Izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotgan islohotlar natijasida tadbirkorlik ham rivojlanmoqda, yangi korxonalar qad rostlayapti. Prezidentimizning Sirdaryo viloyatiga bu galgi tashriflari esa hudud aholining kayfiyatini yanada ko'tardi, ularni faollikka chorladi. Davlatimiz rahbari tashrif davomida Sayxunobod tumanining «Ittifoq» mahallasida bo'lib, tomorqa va uy xo'jaliklaridagi omilkorlik ishlari bilan tanishdi. Shu yerda tomorqa egalari, mahalla faollari bilan suhbatlashdi.

Davomi 3-sahifada

2-sahifa

Qonun loyihasi bilan xavflilik darajasidan kelib chiqib, javobgarlik uch toifaga ajratilmoqda va

# 5,1

million so'mdan 17 million so'mgacha jarima belgilash taklif qilinayapti.

DAVR,  
JAMIYAT,  
GAZETA

5s

## PARTIYA

# KELISHILGAN O'YINLARU

O'YINCHILARGA HAM, PIROTEKNIKAGA O'YINCHUQ DEB QARAYOTGANLARGA HAM

# JINOIY JAVOBGARLIK

BELGILAMOQCHI

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida «Sport sohasida korrupsiyaning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi.

### ◆ Fraksiyada

Ta'kidlanganidek, keyingi ikki yilda sportni rivojlantirish bo'yicha 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, oxirgi besh yilda qariyb 4 trillion so'm ajratilgani soha rivojiga xizmat qilmoqda. Biroq bu soha ham korrupsiyadan holi emas, ayniqsa, futboldagi kelishilgan o'yinlar bilan bog'liq holatlar nafaqat

sportchilarni, balki millionlab muxlislarning ham hafsalasini pir qilmoqda. Bu noxushlik mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tibori va imijiga ham salbiy ta'sir ko'rsatayotir.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2019-2023 yillarda 30 nafardan futbolchi va hakamlar, 8 nafar murabbiy, 7 nafar futbol klubi rahbari va 2 nafar ma'muriyat xodimi - jami 77 nafar sportchining kelishilgan o'yinlarda ishtirok etgani aniqlanib, ularga nisbatan tegishli choralar



Bir necha yildirki BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar O'zbekistonga bunday qilmishlar uchun qonunchilikda jinoiy javobgarlik belgilashni tavsiya etib keladi.



– Aslida jarimaning oshirilishi masalaning yechimi emas, piroteknika buyumlarining mamlakatimizga noqonuniy kirib kelishi butunlay cheklanmas ekan, muammo barham topmaydi.

ko'rilgan. Jumladan, ulardan 32 nafari ma'lum muddatga yoki umrbod sportdan chetlatilgan bo'lsa, 26 nafari 1 million so'mdan 50 million so'mgacha jarimaga tortilgan. Ammo shuni alohida ta'kidlash joizki, qonunchilikda bu borada aniq javobgarlik belgilanmagani bois, tegishli hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yetib kelmayapti, aybdorlar esa yengil jazolar bilan qutulayapti. Kelishilgan o'yinlar soni esa yildan-yilga ortyapti.

Davomi 2-sahifada

## «MILLIY TIKLANISH»



## ANONSLAR



HASHARDA PARTIYA FAOL QATNASHMOQDA

6-sahifa

# QAROR QAT'IY:

masala sessiyaga kiritilishi shart

2s




HAYOSIZ YUZ, JONSIZ JASAD KABIDIR...

FRANSUZ YOKI NEMIS EMAS, O'ZIMIZNIKI O'ZIMIZGA



G'IRROMLIK QILYAPTI

6s



# PARTIYA KELISHILGAN O'YINLARI O'YINCHILARGA HAM, PIROTEKNIKAGA O'YINCHOQ DEB QARAYOTGANLARGA HAM JINOIY JAVOBGARLIK BELGILAMOQCHI



Bir necha yildirki BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar O'zbekistonga bunday qilmishlar uchun qonunchilikda jinoiy javobgarlik belgilashni tavsiya etib keladi. Bilamizki, AQSH, Xitoy, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Ozarbayjon, Latviya kabi aksariyat davlatlar qonunlarida shunday normalar belgilangan.

Shu sababli, xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchiligimizga moslashtirish maqsadida Jinoyat kodeksiga tegishli moddalar kiritilib, hatto bunday harakatlarni juda ko'p miqdorda va uyushgan holda sodir etganlarni bazaviy hisoblash miqdorining 600 yuz baravarigacha (204 million) miqdorda jarimaga tortish yoki 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish taklif qilinayapti. Shuningdek, sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta'sir

ko'rsatishning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda.

Yig'ilishda «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga piroteknika buyumlarining qonunga xilof muomalasining oldini olish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish haqida»gi qonun loyihasi ham muhokama qilindi.

Qonun tashabbuskorlarining qayd etishlaricha, amaldagi normada piroteknika buyumlarining noqonuniy muomalasi uchun bir xil javobgarlik belgilangan. Xususan, bunday buyumlardan qonunga xilof ravishda foydalanish, ularni xavfsizlik talablariga javob bermaydigan joylarda saqlash, ishlab chiqarish va tayyorlash yoki O'zbekistonga olib kirish 1,7 million so'mdan 6,8 million so'mgacha jarima bilan jazolanishi belgilangan.

Biroq bu norma piroteknika buyumlarining noqonuniy aylanmasini cheklay olmayapti.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2021–2023-yillarda 1 milliard 693 million so'mlik shunday buyumlar qonunga zid ravishda olib kirilgan.

Endi ushbu qonun loyihasi bilan xavfli darajasidan kelib chiqib, javobgarlik uch toifaga ajratilmoqda va 5,1 million so'mdan 17 million so'mgacha jarima belgilash taklif qilinayapti.

Shuningdek, piroteknika buyumlarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish tizimini mustahkamlash maqsadida tegishli ma'muriy bayonnomalarni rasmiylashtirish vakolati Milliy gvardiyadan tashqari ichki ishlar organlariga ham berilmoqda.

Fraksiya rahbari Alisher Qodirov qonun loyihasiga munosabat bildirib, piroteknika vositalarini o'ynatgan yoshdagi bolalarni jazo bilan qo'rqitib bo'lmashligini ta'kidladi.

– Aslida jarimaning oshirilishi masalaning yechimi emas, piroteknika buyumlarining mamlakatimizga noqonuniy kirib kelishi butunlay cheklanmas ekan,

muammo barham topmaydi, – dedi Alisher Qodirov.

Qonun tashabbuskorlari ham bu fikrni qo'llab-quvvatlab, ushbu qonun loyihasi bilan aynan piroteknika buyumlarini olib kirganlar va tarqatganlarga nisbatan qat'iy jazo belgilanayotganini, bu o'z-o'zidan undan foydalanuvchilar sonining kamayishiga olib kelishini qayd etdilar. Chunki har qanday talab taklifdan kelib chiqadi.

Deputat Jahongir Abdurasulov esa piroteknika vositalarini kontrabanda yo'li bilan olib kirayotganlarga qarshi jarima emas, jinoiy javobgarlik belgilash lozimligini ta'kidladi.

Qizg'in muhokamalardan so'ng deputatlar ikkinchi o'qishda qonun loyihasini takomillashtirish, kerak bo'lsa jarimalar miqdorini yanada oshirish, shuningdek, bu borada ota-onalarning javobgarligi va mas'uliyatini yanada kuchaytirishni taklif qildilar.

Ravshan MAHMUDOV,  
«Milliy tiklanish»  
muxbiri

**Maktabda o'qituvchida erkinlik, o'quvchida intizom bo'lishi shart**

**124** ming o'quvchi sababsiz maktabga kelmagan. 3 ming nafar otana MJTKning 47-moddasi bilan jarimaga tortilgan. Bu jazo shikoyat bo'lmagani uchun deyarli qo'llanmagan. Maktabni ham tushunish kerak – bolani o'qitsinmi, ota-onasi bilan tortishsinmi... G'arb yo'qotilgan avlod oila va ta'limda qadriyatlarini rad etish natijasi ekanini tan olmoqda.

Tarbiya masalasida keskin qarorlardan qochmaslik kerak. Maktabni tugatgan, o'qishga kirganlardan tashqari barcha o'g'il bolalarni to'lovlarisiz, bir yillik majburiy harbiy xizmatga jalb qilish lozim. Tartib va mas'uliyatni maktab va harbiy xizmatda o'rgatmasak, qamoqxonada hech qachon o'rgatib bo'lmaydi.

O'zbekistonni erkinlikni hadsizlik deb biladigan, atlas kostyumli xunasalar emas, o'z qadri biladigan, tafakkur qiladigan o'g'il-qizlar rivojlantiradi. Nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoda bog'cha va maktab milliy xavfsizlik masalasiga aylangan. Uni nafaqat Milliy gvardiya, balki, butun jamiyat qo'riqlashi kerak!



@alisherQodirov

**ENDI USHBU QONUN LOYIHASI BILAN XAVFLILIK DARAJASIDAN KELIB CHIQUIB, JAVOBGARLIK UCH TOIFAGA AJRATILMOQDA VA 5,1 MILLION SO'MDAN 17 MILLION SO'MGACHA JARIMA BELGILASH TAKLIF QILINAYAPTI.**

✓ Vaziyatga nazar

## QAROR QAT'IY:

masala sessiyaga kiritilishi shart



**M**a'lumki, Xorazm O'zbekistonning ko'p ming yillik tarixiy obidalari, muqaddas qadamjolari va o'ziga xos osori-atiqalari bilan sayyohlar e'tiborini tortayotgan yirik hududlaridan.

Ammo keyingi paytlarda mutasaddilarning e'tiborsizligi, sohani rivojlantirishga oid muhim hujjatlar ijrosiga loqaydlik qilinayotgani sabab viloyatning misqollab yig'ilgan sayyohlik obro'siga putur yetmoqda.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi viloyat Kengashi tomonidan 2016-yil 2-dekabrda «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident Farmoni hamda 2017-yil 16-avgustda «2018–2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori hamda «Turizm to'g'risida»gi, «Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida»gi Qonunlar ijrosi o'rganilganda aniqlangan kamchiliklar shunday xulosa chiqarishga asos bo'lishi mumkin.

Jumladan, ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida taklif qilingan Urganch temir yo'l vokzaliga qo'shimcha 10 ta poyezd vagonlarini sotib olish va shu orqali Urganch-Toshkent hamda Urganch-Andijon reyslari sonini oshirish masalasi nihoyatda dolzarb bo'lsada, ammo hamon o'z yechimini topmayapti.

«Ko'hna Xorazm muqaddas qadamjolari bo'yicha sayohat» dasturi ishlab chiqilgan bo'lsada, Xiva shahridagi «Said Aloviddin maqbarasi», «Pahlavon Mahmud ziyoratgohi»ga, Shovot tumanidagi «Yusuf Hamadoniy ziyoratgohi» va Shayx Muxtor Vali ziyoratgohi»ga, Yangiariq tuman Shayx Odina bobo ziyoratgohiga sayohatchilarni jalb etish

uchun haligacha yo'l xaritasi ishlab chiqilmagan.

Xiva shahrida xorijiy turistlar uchun servis xizmatlari ko'rsatadigan malakali kadrlar yetarli emasligi ham mutasaddilarni o'ylantirmayapti va bu muammolar ertaga yanada dolzarblashishi mumkin.

Vaholanki, 2023-yil 26-aprelda «Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident qarori asosida ishlab chiqilgan «Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish bo'yicha 2023-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasida» Madaniyat vazirligi hamda Xorazm viloyati hokimligi oldiga ayni shu masalalarni hal etish yuzasidan aniq vazifalar qo'yilgandi.

Ana shularni e'tiborga olib, fevral oyida partiya viloyat Kengashi a'zolari ushbu masalalar bo'yicha mas'ullar hisobotini eshitishgandi

**“XIVA SHAHRIDA XORIJIY TURISTLAR UCHUN SERVIS XIZMATLARI KO'RSATADIGAN MALAKALI KADRLAR YETARLI EMASLIGI HAM MUTASADDILARNI O'YLANTIRMAYAPTI VA BU MUAMMOLAR ERTAGA YANADA DOLZARBLASHISHI MUMKIN.**

ham. Endi esa partiya faollari bu masalani xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasiga alohida masala sifatida kiritishga qaror qildilar. Zero, turizmga e'tiborsizlik viloyat iqtisodiga e'tiborsizlikdir.

Partiyaning Xorazm viloyati Kengashi matbuot xizmati

✓ Кутинг!

**ФЛДРОЩАДА ФАТГОПАДА ҚАЧОН УЙФОНИШ БУЛАДИ?**

**Ёки сиёсат ичида бўла туриб, сиёсатдан айри яшаётган айрим партиядошларимиз хусусида**

**Келгуси сонларда**

Kechagidek yodimda, deputatlikka nomzod sifatida saylovchilar bilan uchrashganimda, bir guruh erkaklar asfaltga chizilgan katta aylana shaklini ko'rsatib: «Shu yerga avvalgi deputatimizni «ko'mganmiz». Ana, uning birgina barmog'i chiqib turibdi... U nimani qoyil qilgandiki, sen ayol boshing bilan nima qilib berarding?», deyishgandi.

# SIYOSATDA tasodif bo'lmaydi



Partiyamiz rahbari Alisher Qodirov tashabbusi bilan deputat yordamchilari instituti faoliyati yo'lga qo'yilgan. Men ushbu institut faoliyatidan unumli foydalanyapman. Bu borada menqa yaqindan yordam bergan Mehribon opa Tillayevadan behad minnatdorman.

«Ayol va siyosat» ruknining tayyabdagi mehmoni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Muborak Ahmedova bo'ldi.

— Bundan 25 yil avval iqtidorli qizlarni rag'batlantiruvchi birgina «Zulfiya» nomidagi davlat mukofoti bo'lardi. Bugun esa bilimimni oshiraman, iste'dodimni namoyon qilaman, deganlar uchun beqiyos imtiyozlar yaratilgan. Hatto qizlar uchun oliy o'quv yurtlariga kirish bo'yicha kvotalar ajratilyapti, magistratura bosqichida tahsil olayotgan qizlarning o'quv-kontrakt pullari davlat tomonidan to'lab berilyapti. Hatto saylov qonunchiligiga deputatlikka nomzodlarning kamida 40 foizi ayollar bo'lishi haqidagi norma kiritildi.

Ularni tazyiq va zo'ravonlikdan asrash maqsadida qonunlar ham qabul qilinaypti. Ayollar xavf guruhiga mansub qatlam bo'lgani uchun ular davlat tomonidan himoya qilinaypti ham. Sir emaski, ayrim oilalarda «Qiz bolaning o'qishi shart emas, uning asosiy vazifasi oila qurish, bola boqish», degan stereotiplarning saqlanib qolayotgani yoki qo'li kaltalik qilib, bilimi, iqtidorini yuzaga chiqara olmayotgan qizlarimiz uchun ham bunday imtiyozlar zarur, albatta. Bir erkakni o'qitsak, uning nafi nari borsa, o'z oilasi a'zolariga tegishi mumkin, bir qizni o'qitib, ziyoli qilsak, u millatni tarbiyalaydi, deyishadi-ku.

Hududlarda saylovchilarimiz bilan uchrashuvlarda ko'pincha menga qizlar oliy ta'limga oid savollar bilan murojaat qilishadi. Men ularga yaratilayotgan imtiyozlar haqida tushunchalar beraman, bunday imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishga chaqiraman. Zero, aksariyat o'zbek oilalarida afsuski, qiz bolalarga nisbatan, o'g'il bolalarning ta'lim olishiga ko'proq e'tibor qaratilishi mentalitetimizga xos xususiyat.

— Bugungi kunda Oliy Majlis Qonunchilik

palatasidagi ayollar ulushi 33 foizga yetdi. Bu qanday natija berdi deb o'ylaysiz?

— Ayol deputatlarimiz o'z vakolatlari doirasida saylovchilar muammolarini ijobiy hal qilib, ularning ishonchini oqlashga astoydil harakat qilishyapti. Masalan, men o'zim tibbiyot yo'nalishida tahsil olganman, ta'lim sohasida 27 yillik mehnat stajiga egaman. Ayni paytda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi sanoat va qurilish masalalari qo'mitasi a'zosi. Mendek oddiy bir o'qituvchi uchun siyosatga kirib kelish, boz ustiga, men uchun mutlaqo notanish bo'lgan sanoat va qurilish sohalarining qonuniy asoslari bilan ishlash oson bo'lmadi. O'z ustimda muttasil ishlab, siyosiy, huquqiy savodimni oshirdim. To'g'ri, ayrim deputatlarimiz qaysidir jabhalarda o'zlarini to'laqonli namoyon etolmayotgan yoki faoliyati bilan jamoatchilikni yetarlicha xabardor qila olmayotgan bo'lishi mumkin. Lekin bu deputat ishlamaypti, degani emas. Deputatlar faoliyati muntazam monitoring qilib borilishi ularni yanada faollikka undamoqda.

— Siyosatga qanday kirib kelgansiz? «Milliy tiklanish» partiyasi deputati bo'lish siz uchun nima?

— Rahmatli dadam ilmli, ziyoli, jamiyatdagi voqea-hodisalarga befarq bo'lmagan inson edilar. Siyosiy jarayonlardan nafaqat o'zlarini, balki bizni ham xabardor qilib turardilar. Meni ham ziyoli, ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishimni istardilar. «Qizim, qani edi sen ham deputat bo'lsang», degan niyatni bot-bot takrorlardilar. Niyatlari xolis ekan, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan, yana boshqa partiyalardan ham nomzodimni deputatlikka qo'yishga oid takliflar bo'ldi. Men «Milliy tiklanish»ni tanladim. Boisi, partiyaning Saylovoldi dasturida

ta'limdan ham avval tarbiyaga ustuvorlik berilishi menga juda ma'qul bo'ldi. Partiyamizning qo'llab-quvvatlashi tufayli 71,1foiz ovoz bilan deputat bo'lib saylandim. Ammo ming afsus, bu kunlarni ko'rish dadamga nasib etmadi...

— Qo'limizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddinjon Ismoilov nomiga Qo'shko'pir tuman Qo'nazi mahallasi fuqarolaridan kelgan minnatdorlik maktubi turibdi. Unda «Obod mahalla dasturi»ga kiritilgan bo'lsa-da, obodonlashtirish ishlari paysalga solib kelingani yuzasidan deputat Muborak Ahmedovaga qilingan murojaatning samarasi o'laroq, mahalla idorasi uchun yangi bino qurilgani, suv quvurlari yangilangani, mahallaning ichki ko'chalari asfaltlangani, internet tarmog'iga ulangani, elektr tizimi bilan bog'liq chalkashliklar ijobiy hal qilingani bayon etilgan. Yana bir xaf 50-umumta'lim maktabi jamoasi tomonidan yozilgan. Aytinchki, yuqoridagi muammolarning qaysi birini amalga oshirish qiyin kechdi?

— Bilasiz, partiya ham rahbari Alisher Qodirov tashabbusi bilan deputat yordamchilari instituti faoliyati yo'lga qo'yilgan. Men ushbu institut faoliyatidan unumli foydalanyapman. Bu borada menqa yaqindan yordam bergan Mehribon opa Tillayevadan behad minnatdorman.

Savolingizga keladigan bo'lsak, garchand mening okrugim bo'lmasa-da, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tibbiyot komissiyasi a'zosi sifatida Namangan viloyatining Kosonsoy tumanidagi tug'ruqxona bordim. Tug'ruqxonaning holatini ko'rib, shunday abgor sharoitda ikki jonning hayotini xavfga qo'yib, farzand dunyoga

keltirayotgan ayollarga achinib ketdim. U yerdagi sanitariya-gigiyena qoidalari haqida-ku, gap ham bo'lishi mumkin emasdi. Tug'ruqxonadagi holat yuzasidan parlamentda Sog'liqni saqlash vazirligi mutasaddilariga ma'lumot berdim. Vazir o'rinbosari: «Uzr, opa, tug'ruqxonadagi bu holatdan xabarimiz yo'q edi», deya munosabat bildirdi hamda

„Sir emaski, ayrim oilalarda «Qiz bolaning o'qishi shart emas, uning asosiy vazifasi oila qurish, bola boqish», degan stereotiplarning saqlanib qolayotgani yoki qo'li kaltalik qilib, bilimi, iqtidorini yuzaga chiqara olmayotgan qizlarimiz uchun ham bunday imtiyozlar zarur, albatta.

qisqa muddatda tug'ruqxona ta'mirlanib, uning yonida qo'shimcha tug'ruq majmuasi ham qad rostladi.

— O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq amaldagi Saylov kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilyapti. Aytinchki, aralash — majoritar va proporsional saylov tizimi joriy qilinishi xususida qanday fikrdasiz?

— Ayni kunlarda aralash saylov tizimining joriy qilinishiga oid qonun loyihasi keng jamoatchilik tomonidan muhokama qilinmoqda. Amaldagi saylov tizimida saylovchi partiyalardan ko'rsatilgan nomzodlar uchun ovoz bergan bo'lsa, aralash saylov tizimida partiyalar uchun ovoz beradi. Bunday tizim joriy qilinishi qaysidir ma'noda, siyosiy partiyalar uchun qulay imkoniyat hamdir. Aralash saylov tizimi partiyalarning xalqimiz orasida tanilishi, e'tibor qozonishiga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joiz, bugun saylovchilarning aksariyati

siyosiy uyg'oc, mamlakatdagi islohotlar, partiyalar faoliyati xususida o'z fikri, xulosalariga ega. Lekin shuni ham tan olishimiz kerakki, partiyalar haqida umuman tasavvurga ega bo'lmagan yoki bo'lmasa, deputatlar haqida salbiy fikri shakllanib qolgan aholi qatlami ham yo'q emas. Saylovoldi uchrashuvlarimizda saylovchilarning: «Saylov

nomzodi qo'yilgan okrugdagi mavjud muammolardan xabardor bo'libgina qolmay, ularning yechimiga oid aniq taklif va tashabbuslarni ham ilgari surishlari kerak bo'ladi. Aks holda ayrim deputatlikka nomzodlarning havoyi, balandparvoz gaplari, quruq va dalaridan charchagan saylovchining ishonchini qozona olishmaydi.

Kechagidek yodimda, deputatlikka nomzod sifatida saylovchilar bilan uchrashganimda, bir guruh erkaklar asfaltga chizilgan katta aylana shaklini ko'rsatib: «Shu yerga avvalgi deputatimizni «ko'mganmiz». Ana, uning birgina barmog'i chiqib turibdi... U nimani qoyil qilgandiki, sen ayol boshing bilan nima qilib berarding?», deyishgandi. Men ular bilan gap talashmadim, o'zimni oqlashga harakat ham qilmadim, tushkunlikka tushmadim, bosiqlik, vazminlik bilan maqsadim sari intildim. Partiya saylovoldi Dasturida belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosi haqida ko'proq gapirdim. Masalan, mahalla raislari maoshlarini oshirishga oid taklif partiyamiz tomonidan ilgari surilganini aytganimda, yig'ilganlar qarsak chilib olqishlashdi. Shu tariqa saylovda g'alaba qozonib, 73,1 foiz ovoz bilan deputat bo'ldim.

Xulosa qilib aytganda, bilim va salohiyat, vazminlik va bosiqlik bilan har qanday maqsadga erishish mumkin.

— An'anaviy savol: Siz havas qilgan lider ayol kim?

— Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga o'z hissasini qo'shib kelayotgan ijtimoiy-siyosiy faol ayollarning barchasiga xavas qilaman. O'zbekim ayollariga xos bo'lgan jonsaraklik, fidoyilik, shijoat, jo'shqinlik kabi fazilatlaridan har birimiz ibrat olsak, arziydi.

Feruza JALILOVA suhbatlashdi.

## Munosabat

### Bugungi Sirdaryo kechagi Sirdaryo emas



Sherzod QULMATOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Sayxunobod tumanida yerda tomorqa va uy xo'jaliklaridagi imkoniyatlarni to'liq ishga solish orqali aholi daromadlarini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida muhim vazifalar belgilab berildiki, ularning hammasi insonni rozi qilish, odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilashga qaratilgani bilan e'tiborga molikdir. Masalan, xonadonlarda kichik ishlab chiqarishni tashkil qilishga ko'maklashish zarurligi aytilib, shu maqsadda tumanda tadbirkorlik infratuzilmasini yaxshilashga 60 milliard so'm ajratilishi qayd etildi. Bo'sh turgan 21 ta inshootga esa investorlar jalb qilinib, foydalanishga kiritiladi. Eng muhimi, «Farovon» mahallasida 35 gektar maydonda kichik sanoat zonasi tashkil qilinib, kamida 100 million dollarlik sanoat loyihalari boshlanadi. Bu kabi loyihalar ijrosi natijasida tumanda tadbirkorlik keng quloq yoyadi, ming-minglab yoshlar shu yerning o'zida ishli, daromadli bo'ladi. Sirasini aytganda, bugungi bunyodkorlik ruhi har bir viloyatdoshimizni yangi marralarni zabt etishga chorlayapti. Yurtdoshlarimizning ko'zlaridagi hayotdan mamnunlik, ayniqsa, yoshlarimizning nigohlarida barq urib turgan g'ayrat-shijoat, ertangi kunga ishonch ularning porloq kelajigidan dalolat beradi.

(Boshlanishi 1-sahifada)

## Кутинг!



Келгуси сонларда



Xurshid DO'STMUHAMMAD,  
filologiya fanlari doktori,  
professor

# HAR BIR GAZETA BAMISOLI TIRIK JON, TIRIK ORGANIZM, TUG'ILADI, VOYAGA YETADI, YASHAYDI



shu bilan bir vaqtda uning ravnaq topishi, gullab-yashnashi va qanchalar uzoq umr kechirishi juda-juda ko'p omillarga bog'liq bo'lib qoladi. Buning sababi chuqur. Gazetaning hayoti jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'liqlikda kechadi.

# DAVR,

# JAMIYAT,

# GAZETA

badiiy-publistsistik maqolalar, she'r hamda hikoyalar va boshqa ko'plab mavzulardagi chiqishlarimiz bilan ma'naviy ozuqa ulashishga baholi qudrat harakat qildik).

Gazeta sahifalaridan tushmagan ruknlarga ko'z yugurtiraylik: «Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukur», «Achchiq, ammo ochiq gaplar», «Siz nima deysiz?», «Gazetxon fikri», «Yodimizdan yiroq odamlar», «Tarixga nazar», «Muxbirimiz muammo qo'yadi», «Juma saboqlari», «Yaxshilardan so'z ochdik», «Jamiyat og'rig'i», «Qishloqlarni yayov kezganda», «Siz kutgan suhbat».

Sanab o'tilgan ruknlar ostida e'lon qilingan chiqishlarni mutolaa qilishdan tug'ilgan taassurotlar bayoniga kirishilsa, mubolag'asiz, bir kitobga jo bo'ladi. Bugungi «Farg'ona haqiqati» bilan bundan 110 yil muqaddam chop etilgan «Sadoi Farg'ona» gazetasi jamoasi diliga tukkan maqsad yonma-yon qo'yilsa, xolis nazar-nigoh tashlansa, qanchalar o'xshashlik, qanchalar yaqinlik, qanchalar ezgulik ko'zga yaqqol tashlanadi. Davr boshqa, zamon boshqa, jamiyat va mafkuralar xilma-xil, lekin ezgu maqsad bir: odamlarni xabardor qilish va «insonni komil» qilish! To'g'ri, hozirgi zamon istaklari va imkoniyatlari bilan bir asr burungi holat o'rtasiga tenglik alomatini qo'yish mantiqsiz, albatta. «Farg'ona haqiqati» qamrovni shu qadar keng olganki, bunday miqyosda faoliyat yuritishga mamlakatimizdagi viloyat gazetalarini emas, respublika miqyosida chop etiladigan ko'plab nashrlar ham havas qilsa arziydi. Zero, gazeta nafaqat viloyat, balki Farg'ona vodiysi hayotini qamrab olishga jazm etgan («Vodiy ovozi» sahifasi), bu bilan ham kifoyalanmay, mamlakatimizda, qolaversa, dunyoda kechayotgan muhimdan-muham voqealarni qamrab olishga harakat qilmoqda. Avvalo, bir viloyat gazetasi miqyosida shuncha masalani zimmaga olish naqadar oson emasligini qalam ahli yaxshi biladi, tushungan odam tushunadi, biroq zamon boshqa, odamlar boshqa, tafakkurlar mutlaqo o'zgacha. Hozir eng taqchil narsa – axborot. Axborot qanchalik ko'p berilsa, u shunchalar ozlik qilayotgan davrda yashab turibmiz. «Farg'ona haqiqati» taxlamlarini varaqlagan har qanday tadqiqotchi, ilmiy tilda aytganda, tahririyat ijodiy jamoasi minimal imkoniyatlardan maksimal foydalanayotganini ko'rishi qiyin emas.

«Farg'ona haqiqati» ana shunday miqyoslarda faoliyatni yo'lga qo'ygan viloyat ziyolilarining, Farg'ona viloyati intellektual-ijodiy dunyosi vakillarining va albatta, viloyat rahbariyatining e'tibori, madadi va qo'llab-quvvatlashi mevasi ekanligiga shak-shubha yo'q.

Shu o'rinda O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Farg'ona viloyati bo'limi tashabbusi bilan bir guruh farg'onalik jurnalistlar Hindiston safariga borib kelishgani alohida voqea ekanligini ta'kidlamog'imiz zarur. Ushbu o'ziga xos safar asnosida viloyat hokimi Xayrulla Bozorovning maqolasi Hindiston matbuotida, Hindistonning O'zbekistondagi sobiq elchisi Skand Ranjan Tayalning maqolasi «Farg'ona haqiqati» gazetasida e'lon qilingani chinakam ma'noda tarixiy voqeadir.

Ustoz Boybo'ta Do'stqorayev «Sadoi Farg'ona» gazetasining 1914-yil 4-may kuni sonida e'lon qilingan Muhammad Odilning «Pilla kam tutilmog'ining sababi» sarlavhali tahliliy maqolasini «milliy matbuotimizda ilk marta jurnalistik tekshiruv janriga murojaat qilindi» deb baholaydi. Gazetaning 1914-yil aprel-may sonlarida davomli maqola sifatida bosilgan Cho'lpon qalamiga mansub «Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik» maqolasini mavzuning mohiyatiga kirish nuqtayi nazaridan jurnalist surishtiruviga o'xshatadi.

**J**amiyatning biror-bir sohasi, biror-bir voqea-hodisasi gazetaning diqqat-e'tiboridan chetda qolmaydi. Yaxshisi ham, yomonisi ham. Achchiq'i ham, chuchugi ham. Quvonchu qayg'usi ham. «Nega uni yozib chiqding?» deb do'q-po'pisa qilish, gina-kuduratga borish «GAZETA» otliq mo'jizaning tabiatini, vazifasini, missiyasini tushunmaslik, anglab yetmaslikdan o'zga narsa emas. Ommaviy axborot vositalarining bayroqdori, yetakchisi bo'lmish gazetaning boshiga ne kunlar tushsa, ularning bari uning tabiatiga, vazifasi va missiyasiga borib taqaladi.

Gazeta bo'sunmas mavjudot, o'jar, qaysar, o'z bilganidan qolmaydigan maxluq. Uning bittayu bitta do'sti bor – haqiqat! Mezoni – vijdon! U o'zi yashab turgan jamiyatning ko'zgusi, binobarin, borni bor deydi, yo'qni yo'q. Dunyodagi qaysi gazetaning boshiga ne ko'rguliklar tushgan bo'lsa, hamma-hammasi ushbu sanab o'tilgan xususiyatlar tufayli, ushbu fazilatlar... yo'q, fazilat demaylik, takror bo'lsa-da, ta'kidlaylik: gazetaning qismati shu, uning peshonasidagi yozig'i mana shu!

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari mintaqamizda vujudga kelganiga taxminan 150 yil bo'ldi. Bunday qaraganda, u qadar uzoq davr emas, ammo-lekin shu yillar mobaynida mintaqamiz, jumladan, mamlakatimiz o'zimizning ijtimoiy-siyosiy to'lg'anishlarni boshdan kechirdimi? Siyosat o'zgardi, mafkura o'zgardi, davr o'zgardi, shunga yarasha matbuot ham ko'pdan-ko'p o'zgarishlarga uchradi. Ana shunday o'zgarishlar to'liqida nima uchun jurnalist o'zgarishlari kerak?! Ta'na va ta'kid to'la savol davom ettirilsa, tasavvurga sig'imas ushbu o'zgarishlar silsilasi jarayonini to'g'ri, savodli, ma'rifatlil va yanada muhimi, xolis anglab yetish keng ommani, hukmron-rahbariy siymolarni o'zmuncha murakkabdan-murakkab vaziyatlarga solib kelmoqdami?!

Matbuot, jumladan, gazeta hukmron mafkuraga bo'ysunishi, unga xizmat qilishi, yuqoridan chizilgan chiziqdan chetga chiqmasligi milliy jurnalistika uchun yangilik emas. Ammo-lekin bir haqiqatni hech ikkilanmay aytishga burchlimiz: har qanday davrda, har qanday ijtimoiy-siyosiy «ob-havo»da gazetalarimiz gazeta degan sharaffi nomga, jurnalistlarimiz jurnalist degan sharaffi nomga dog' tushirmaslik chorasini izladilar, kasbimiz tiynatidagi eng muqaddas vazifa-missiyani ado etish yo'llariga sadoqatlarini saqladilar. Gapni uzoqdan boshlaganimiz bejiz

emas. Zero, Farg'ona viloyatida chiqqan ilk milliy gazeta «Sadoi Farg'ona»ning dastlabki nusxasi bundan roppa-rosa 110 yil (1914-yil 3-aprel kundan) muqaddam nashrdan chiqqan.

Savol tug'iladi: gazeta ta'sis etishdan ne maqsad-muddaolalar ko'zda tutilgan edi? Milliy matbuotimiz tarixi bilimdoni, hassos olim Boybo'ta Do'stqorayev tadqiqotlari bu borada tug'ilajak har qanday savolga javob bera oladi.

Gazetaning birinchi sonida muharrir Obidjon Mahmudov maqsadni ochiq-oydin yozdi: «...xalqimizga qo'limizdan kelgan qadar xizmat etmakdir».

«Xalqimizga xizmat etmak» degan jumlagina ham oydinlik kiritishga to'g'ri keladi. Buning uchun o'sha davrni, milliy va xorijiy voqealarni, xalqimizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, mafkuraviy va hokazo ahvollarini bir qadar bo'lsa-da, tasavvur qilmog'imiz zarur. Bir so'z bilan aytganda, aholi o'rtasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan muammolar shu qadar qalashib ketganki, shunga to'g'ri yondashgan «Sadoi Farg'ona»ning ham ishi-yumushi boshidan oshib-toshgan. Shunday ekan, gazetaning birinchi sonida chop etilgan quyidagi so'zlarga e'tibor qarataylik: «Dardimiz – bir, kasalimiz ham – bir, davo va darmonimiz ham birdur».

Boshqacha bo'lishi mumkin ham emas, zero, gazeta qaysi zamon va qaysi makonda faoliyat yuritmasin, u avvalambor xalqniki, u xalq uchun nashr etiladi, shunday ekan, uning butun turish-turmushi, tutumlari, maqsad-vazifalari keng ommaning qiziqish va manfaatlariga hamohang, vobasta bo'lib qolaveradi.

«Sadoi Farg'ona» gazetasining 2-sonidan olingan quyidagi so'zlarga e'tibor qarataylik: «G'azeta bir idorai umumiydir, har kim xayoliig'a kelgan fikrini maydonga chiqarub yozmakg'a haqi bor». Biz zamonaviy so'z erkinligi tizimlari, matbuot erkinligi, ya'ni demokratiya qadriyatlarini G'arbda

paydo bo'lgan, demokratiyaning otasi-o'chog'i G'arbiy mintaqalarda degan taassurotlardan voz kechilmaymiz. Vaholanki, mana shu olingan iqtibosga teranroq, chuqurroq razm solaylik. Qaysi qadriyatlar nazarda tutilmoqda mazkur so'zlarda?

Gazeta – umunning mulki ekanligi, uning sahifalarida har qanday fikrni maydonga tashlashga, ya'ni keng omma e'tiboriga havola qilmoqqa da'vat etilmoqda. Demokratiyaning o'zagi, umurtqasi ham shu emasmi?! Matbuotni shu yo'lda «insonni komil» qiluvchi dorilfununga aylantirish niyati, maqsadi, orzusi yotibdi!

«Sadoi Farg'ona»ning 123 soni dunyo yuzini ko'rdi, oxirgi soni 1915-yilning 6-iyunida chiqdi.

Chog'ishtiraylik: «Farg'ona haqiqati» gazetasining 2023-yil 29-dekabr sonida tahririyat jamoasining «Sarhisobi» e'lon qilindi. Jamoa o'z mushtariylari, muxlislari oldida hisobot bermoqda. «O'tgan yil boshida, – deb yozadilar unda, – bergan va'damiz – ijtimoiy-ma'rifiy, tarixiy, xalqaro hayot va davrning dolzarb muammolari yechimiga bag'ishlangan, viloyat va mamlakat hayotidagi muhim voqealar tafsiloti, tanqidat-tahliliy,

Nihoyatda jiddiy xulosa bu. Kashfiyot bu! Chunki «Jurnalist tekshiruv» hozirgi zamon jahon jurnalistikasida eng ko'p o'qiladigan, eng ko'p samara beradigan janr darajasiga ko'tarilgan. Milliy matbuotimizda esa ushbu janr imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilyapti deb aytoilmaymiz. Buni qarangi, «Sadoi Farg'ona»da shu yo'nalishdagi maqolalar bosilgan ekan, uning hozirgi davomchisi «Farg'ona haqiqati» sahifalarida ham jurnalist surishtiruv chiqib turibdi.

...Gazetaning 2023-yil 19-may kuni sonida shahartepalik yakka tartibdagi tadbirkor-chevar Nilufarxon Sodiqova aytgan quyidagi so'z dono xalqimizning o'lmas hikmatlari yangilig' dilga, xotiraga muhrlanadi: «Mehrban bergan qo'lga igna kirmaydi».

Naqadar halol, naqadar beg'ubor va naqadar o'zbekona! Gazeta mana shunday topilmalari uchun ham, muxlislari va mushtariylari ko'ngliga iliqlik, mehr ulasha olayotgani uchun ham yashashga haqli!

«Hurriyat» gazetasidan  
olindi.





# Ҷоитна

## ёхуд ҳарбий матбуот орқали ёзилган «БОСМАЧИЛИК» КОНЦЕПЦИЯСИ

каз Президиума Ёшловного  
ответственности за ра

Маълумки, Туркистонда миллий озодлик ҳаракатини бостиришда большевиклар қизил армия матбуотини ташкил этиш ва ривожлантиришга жуда катта эътибор қаратганлар. Ушанда ҳарбий хизматчилар учун 20 дан ортик марказий, фронт ва миллий (байналмилал) газеталар чоп этиларди. Ҳарбий нашрлар типологиясининг бундай шаклланиши большевикларнинг ахборот бериш, манипулятив таъсир кўрсатишининг турли усулларидан унумли фойдалангани, матбуотни қучли мафкуравий қурол сифатида қўллаб билишгани ҳамда ОАВни ўз вақтида оммавий сафарбар эта олганларини кўрсатади, албатта. Тарихчи олим П.Агаповнинг келтиришича, ички ва ташқи аксилинкилобий қучларга қарши энг мураккаб ва қийин даврга оммавий равишда қизил армия нашрлари ташкил этилган.

Марказий, фронт ва миллий газеталар учун умумий характер касб этувчи қуйидаги асосий вазибалар белгилаб қўйилган:

- армияга қучли мафкуравий қурол сифатида таъсир этиш;
- ҳарбий қисм командирларига ишончи ёрдамчи бўлиш;
- ҳарбий комиссарлар олиб бораётган ғоявий ишларда кўмакчи бўлиш;
- партия ташкилотларининг мафкура билан боғлиқ ишларида фаол кўмакчи бўлиш.

Айтиш керакки, бу вазибалар ўз-ўзидан пайдо бўлиб қолгани йўқ. П.Агаповнинг фикрича, 1919 йил РКП (б) саккизинчи съездининг тарихий қарори бунда муҳим роль ўйнаган. Яъни, ҳарбий масалаларга бағишланган қуролтўйда «Партиявий ва совет матбуоти» ҳақида қарор қабул қилиниб, ОАВ учун аниқ вазибалар белгилаб берилган. Шунингдек, ҳарбий матбуотни янада ривожлантиришда 1919 йилнинг 14-31 март кунлари бўлиб ўтган иккинчи ўлка партия конференцияси, 1919 йил 24-30 май кунлари ўтказилган муслмон коммунистларининг биринчи ўлка конференцияси ва 1919 йил 1-15 июнь кунлари ўтказилган КПТнинг учинчи съезди қарорлари муҳим ўрин тутган. Келинг, РКП (б) саккизинчи съездининг «Партиявий ва совет матбуоти» ҳақидаги тарихий қарорини кўриб чиқайлик. Унда фуқаролик ишларининг умумий равишда заифлашгани партия ва совет матбуоти ишига улкан зарар етказгани айтилади. Партия ва совет матбуотидаги умумий камчилик сифатида маҳаллий ҳаётдан ҳамда умумий сиёсий жараёндан узилганлик кўпроқ танқид қилинади. Бундай сиёсий айбловлар касбий маҳорат масалаларидаги оксашлар танқидига уланади. Яъни, қарорда ҳажман катта, аудиторияни қизиқтирмайдиган, баён қилиш услуби зерикарли бўлган материаллар, хусусан, турли идора ва муассасаларнинг қарорлари, декретлари эълон

қилиниши тилга олинади. Бу камчиликларнинг сабаби нимада? Партия бунни ҳам кўрсатиб беради: «Партиянинг энг яхши адабий қучлари давлат ишларига ўтиб кетишди, матбуот тажрибаси кам ходимлар қўлида қолди». Вазият нега бунни такозо қилди? Аслида муаммо нимада эди? Нега қуролтўйда ушбу масала бу қалар кескин қўйилди? Бунни совет матбуоти, хусусан, Туркистонда миллий озодлик учун кураш бошланган даврга чоп этилган ҳарбий нашрлардаги айрим материаллар мисолида кўриб чиксак.

Туркфронтнинг ҳарбий инкилобий кенгаши нашри хисобланган «Военная мысль» журналининг 1920 йилда чоп этилган сонларидан бирида муаллиф В.Кувшинов Фаргона фронтдаги аҳолини шарҳлар экан, «босмачилик»нинг авж олишига ҳокимият тепасидалигининг ўз вазифасини суистеъмол қилишга ёғгани ҳамда Туркистон мухторияти ғояси ўз аҳамиятини йўқотмаганини сабаб қилиб кўрсатади.

1918 - 1924 йилларда чоп этилган «Военная мысль» журналда Туркистонда совет ҳокимиятига қарши қаратилган ҳаракатлар моҳияти акс эттирилган мақолалар доимий тарзда чоп этилган. Масалан, Н.Турақуловнинг журналининг 1921 йил 2-сонидида чоп этилган «Ферганская проблема» мақолисида «босмачилик» умумхалк ҳаракати сифатида эътироф этилади. Унинг келиб чиқишига сабаб бўлган ижтимоий, иктисодий омиллар таҳлил қилинади ва бу ҳаракат халқнинг тўлган сабри қосасидан отилиб чиққани ёзилади. П.Барановнинг мақолисида ҳам қурашнинг умумийлиги ва умумхалк ҳаракати тусини олгани таъкидланади. Демак, «босмачилик» қандайдир қарокчи, тўда ёки бандитларнинг эмас, халқнинг норозилиги ёқанлиги мақолада акс эттирилади.

«Красная армия»

СИНАЛГАН УСУЛ БИЛАН МАТБУОТ ПАРТИЯ ЧИЗГАН ЧИЗИҚИДАН БОРИШГА МАЖБУР ҚИЛИНГАН. ОАВ ЁРДАМИДА СОВЕТЛАРГА ҚАРШИ МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТИ ҲАҚИДАГИ МУТЛАҚ СОХТА ТАСАВУРЛАР ШАКЛЛАНТИРИЛГАН.

журналининг 1921 йил 9-сониди эса Н.Батмановнинг «Басмачество и борьба с ним» сарлавхали мақолиси эълон қилинган бўлиб, унда муаллиф муаммога совет ҳокимияти айбдор эканлигини очик ёзади ва таҳлил қилади. Шунингдек, бошқа босма нашрлар ҳам Фарғонадаги «босмачилик» ҳаракати айрим масъул шахсларнинг ўз вазифасини суистеъмол қилиши сабаб бўлган деб ёзади. ОАВдаги бундай ёндашувлар ва ҳали жиловланмаган ижтимоий қарашлар шўроларнинг Туркистонда зўрлик билан ҳукмронлиқни ўрнатиш сиёсатига зарар етказаётган эди. Энг эътиборлиси, матбуотдаги бундай ҳолис ёндашувлар туфайли совет ҳокимиятининг зулми ва зўравонлиги юзага чиқаётган эди. Тарихчи оlima Доно Зиёевнинг «Туркистон миллий озодлик ҳаракати» китобида келтирилишича, Туркистондаги миллий озодлик кураши ҳақидаги ҳаққоний ахборотлар, мулохазалар, тасавурурга барҳам бериш учун ОАВга нисбатан босим ўтказила бошланди ва партия назорати баҳонасида цензура ўрнатилди. Ҳўш, бу цензурани қандай

тушуниш мумкин? Аввало, бу ОАВни тўлиқ партиянинг назоратига ўтказиш дегани эди. Бу билан жамиятда соғлом фикр, сўз эркинлигини бўғишга қаратилган жиддий қадам ташланганди. Матбуотни ҳукмрон коммунистик мафкура манфаатларига зўравонларча бўйсундириш шу тарика амалга оша бошлади. Бу сиёсатни Туркистон билан боғлаб айтилган бўлсак, қизил армия сиёсий бўлимлари, партия ташкилотларининг мафкура, тарғибот-ташвиқот бўлимлари ҳамда матбуот шу вазифага бўйсундирилди.

...1922 йилга келиб РКП (б) марказий қўмитаси матбуот нашрларини қатъий назоратга олиш, таҳририят аъзоларини партияга содиқ кишилар билан алмаштириш ҳақида кўрсатма берди, - деб ёзади Д.Зиёева. Тарихчи олимнинг фикрига эътибор қаратсак, қарор қабул қилинганидан уч йил ўтиб, ижроси бўйича кескин қораларга ўтилгани аён бўлади. Демак, синалган усул билан матбуот партияга содиқ кишилар билан боришга мажбур қилинган. ОАВ ёрдамида советларга қарши миллий озодлик ҳаракати ҳақидаги мутлақ сохта тасавурулар шакллантирилган.

Тилга олинган ҳужжатларга мувофиқ маҳаллий коммунистлар Туркистонда армиянинг мудофаа қобилиятини мустаҳкамлаш, партиявий-сиёсий аппаратни қучайтириш мақсадида қатор қарорлар қабул қилишди. Масалан, Туркесублика инкилобий кенгаши ҳузурда сиёсий бўлимлар, фронтларда эса инкилобий кенгашлар ташкил этилди. Мазкур бўлим ва кенгашлар эса ўз навбатида тарғибот-ташвиқотни қучайтириш, аҳоли, кенг жамоатчилик онгига совет ҳокимияти мафкураси, ғоясини чуқурроқ сингдириш мақсадида оммавий равишда қизил армия нашрларини ташкил эта бошлади.

Натияжада Туркфронт сиёсий бошқармасининг

органи хисобланган ҳарбий нашрлар бир томондан партиянинг назорати остига олиниди, иккинчи томондан «босмачи», «босмачилик» ҳаракати тушунчалари онгимизга сингизишда, аниқроғи, пешонамизга тамга қилиб ёпиштирилишига сафарбар этилди. «Добъем басмачество», «Против басмачей», «Борьба с басмачеством» каби руқиларда доимий мақолалар чоп этилиб, совет тарихшунослигининг «босмачилик» концепцияси ёзилди. Туркфронт муассасилигида чоп этилган «Красноармеец», «Красная звезда», «Красный фронт», «Красноармейская газета», «Набат революции», «Горнист» ва бошқа ҳарбий нашрлар бу масалада содиқ кишилар билан алмаштириш ҳақида кўрсатма берди, - деб ёзади Д.Зиёева.

Тарихчи олимнинг фикрига эътибор қаратсак, қарор қабул қилинганидан уч йил ўтиб, ижроси бўйича кескин қораларга ўтилгани аён бўлади. Демак, синалган усул билан матбуот партияга содиқ кишилар билан боришга мажбур қилинган. ОАВ ёрдамида советларга қарши миллий озодлик ҳаракати ҳақидаги мутлақ сохта тасавурулар шакллантирилган.


Тилга олинган ҳужжатларга мувофиқ маҳаллий коммунистлар Туркистонда армиянинг мудофаа қобилиятини мустаҳкамлаш, партиявий-сиёсий аппаратни қучайтириш мақсадида қатор қарорлар қабул қилишди. Масалан, Туркесублика инкилобий кенгаши ҳузурда сиёсий бўлимлар, фронтларда эса инкилобий кенгашлар ташкил этилди. Мазкур бўлим ва кенгашлар эса ўз навбатида тарғибот-ташвиқотни қучайтириш, аҳоли, кенг жамоатчилик онгига совет ҳокимияти мафкураси, ғоясини чуқурроқ сингдириш мақсадида оммавий равишда қизил армия нашрларини ташкил эта бошлади.

Натияжада Туркфронт сиёсий бошқармасининг

Алижон САФАРОВ, ЎзЖОКУ кафедра мудирини, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

✓ Кутинг!

✓ Жараён




Келгуси сонларда

## Ҳашарда партия фаол қатнашмоқда

Шарқона янги йил, ўзро қадр-қиммат, хайру саҳоват, меҳр-окибат тимсоли - Наврўзи олам муносабати билан юрти-мизда 16-18 март кунлари ўтказилган умумхалк хайрия ҳашарида «Миллий тикланиш» демократик партияси вакиллари, депутатлар ҳам фаол иштирок этдилар. Жумладан, «Обод ва файзли маҳалла - юрт кўрки» шиори остида ўтган ҳашарда партиянинг Марказий ва Тошкент шаҳар кенгашлари вакиллари аввало ўз иш жойларини тартибга келтирдилар, бино ён-атрофини ҳазонлардан тозалаш, дарахтларни оклашди. Партиянинг Бухоро вилояти Кенгаши ва маҳаллий кенгаш депутатлари ҳам таълим ва тиббиёт муассасаларида ўтказилган ҳашарларда, халқ депутатлари Оқолтин ва Янгнер туман Кенгашлари депу-

татлари эса маҳаллаларда ўтказилган ободонлаштириш ишларида фаол қатнашди. Қашқадарё вилояти Кенгаши вакиллари эса Ғузур туманида бўлиб, маҳаллий кенгаш депутатлари хамроҳлигида 70-умумтаълим мактаби ҳовлисига 200 га яқин мевали ва манзарали дарахт кўчатларини ўтказишди. Халқ депутатлари Намангани вилоят Кенгаши депутати Одижон Маматқаримов Уйчи туманда ёлғиз кексалар, ижтимоий химояга муҳтож оилалар, меҳнат фахрийлари қолдиан хабар олган бўлса, Ғазон шаҳар кенгаши депутати Дилором Эгамова «Мармаробод» маҳалласидаги эҳтиёжманд оилалар ҳонадонига инфторлик дастурхони ёзди. Жойларда Наврўз муносабати билан ўтказилаётган умумхалк ҳашарлари давом этмоқда.





Жуманиёз  
ЖАББОРОВ

## Наврўз келибон...

Наврўз келибон, жумлаш жаҳон нозланажакдир,  
Офтоб қизитиб, аста-секин ёзланажакдир.

Яшнар табиат, дашту адир лола ичинда,  
Юртим — чаманим ўзгача пардозланажакдир.

Ирмоқ куладир, елга ўпич берса бинафша,  
Майса қуёш тафтида таннозланажакдир.

Бир лаҳза эшит кумрию булбулни навосин,  
Шўх-шўх таралиб, яллаю шаҳнозланажакдир.

Қайнар сумалак, варрак учар, тўю томоша,  
Диллар қувониб, соз ила парвозланажакдир.

Жавлон уришар давра тузиб неча йигитлар,  
Қизлар безаниб, хусн ила мумтозланажакдир.

Дунёда одам қадри баланд, севса Ватани,  
Юрт ичра яна хурмату эъвозланажакдир.

### АЙЛАНУР

Токи ўз меҳворидан бул чархи гардун айланур,  
Вақту соат ўзгариб, кундуз билан тун айланур.

Ўзарур меҳру муҳаббат, ўзарур дарду алам,  
Ўзарур тахту шоб, ошқору макнун айланур.

Неки тингай бу жаҳонда, унга ўлмакдир насиб,  
Чарх уриб лош устина, шул лаҳза қузғун айланур.

Эй тириклик, минг ташаккур севги иқболинг учун,  
Севги борким, товланиб минг тусли очун айланур.

Гоҳ висола гоҳ фиқрининг ўртасинда ўртаниб,  
Қалбим ичра ишқ деган тугенли мазмун айланур.

Сухбатингда бир нафас бўлмак буюк орзум эрур,  
Бул жасорат қошида минг битта Мажнун айланур.

Икки сочингим, уриб тўлқин, оқар елканг уза,  
Бирда Сайхун мавж отиб, ул бирда Жайхун айланур.

Кўзларингда бул жаҳоннинг кўрки яққолдир аён,  
Шул сабаб дунё ўзи бошингда мафтун айланур.

Сен омон бўл, сен абад бўл бул жаҳон гулзоринда,  
Боқшингдан боғ ўзи минг рангда гулгун айланур.

### УМР МАЗМУНИ

Бешикдан то қабрга қадар  
Одам умри ажабдир, ажаб.  
Боғча фасли тугалса агар,  
Кучоғига олгайдир мактаб.

Бир энтиқиш, маъюс бир лаҳза  
Гўдак қалбин имтиҳон этар.  
Бу айрилиқ – илк оғир ларза –  
Хувиллатиб боғчани... кетар.

Сўнг мактабда ўн йиллик ҳаёт,  
Ешлик кечар сойдаи гувиллаб.  
Бир кун келиб «хайр», дер, ҳайҳот,  
Миктаб қолар ортда хувиллаб.

Сўнгра эса олий илмгоҳ,  
Бунда умр сабогин олар.  
Бул қаср ҳам бир кун қолур, оҳ,  
Олтин давр хувиллаб қолар.

Сўнг... ҳаётда минг синов кечиб,  
Кўражакдир узоқ-ёвуқни.  
Гоҳ ширин, гоҳ аччиқ ичиб,  
Кўп кўражак иссиқ-совуқни.

Ҳар бир одам ўзи бир олам,  
Йўқ ўхшаши, такрори асло.  
Дунё ичра дунёдир одам,  
Бир-бирдан фаркли, мустасно.

Кўз олдида эврилар замон,  
Фарқ этади бахтни, рўени.  
Авж нуқтага етганда инсон  
Хувиллатиб кетар дунёни.

\*\*\*  
Ич-ичимга шўнғиб кетмоқ истадим,  
Истадим, шўнғисам қалбим қатрига.  
Хаёлим отини неча қистадим,  
Вале ўтолмадим сендан нарига.

Етти мўъжиза бор, дерлар, жаҳонда,  
Ким билсин еттидир ё балки етмиши.  
Фақат сен барқарор эрурсан жонда,  
Оллоҳ сени менга мўъжиза этмиши.

\*\*\*  
Донолар китобин кўп ўқиб чикдим.  
Дилбар ўлкаларни этдим томоша.  
Ҳайрат манзиллари ичра чиниқдим,  
Сенга етмоқ бўлдим тоғма-тоғ оша.

Сен ҳамон олисда, ҳамон олдинда,  
Қанча юрган сарим бўлурсан йироқ.  
Гоҳ қоронғуда, гоҳ ойдинда  
Сени қидиришдан толмасман бироқ.

## ДИҚҚАТ! ТАНЛОВ!

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ГАЗЕТАСИ ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИГА САБОҚ  
БЕРАЁТГАН ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ЎРТАСИДА

## «ЎЗБЕК ТИЛИ – МЕНИНГ ТИЛИМ»

МАВЗУСИДА ИНШОЛАР ТАНЛОВИНИ ЎТҚАЗАДИ.

**Ғолиб**  
**20 МИЛЛИОН**

сўм пул мукофоти билан  
тақдирланади.

ЮТУҚЛАР ҒОЛИБ ҲАМДА  
ОМАДЛИ УСТОЗЛАРГА

2024 йилнинг сентябрь ойида –  
Ўқитувчи ва мураббийлар  
байрами арафасида  
топширилади.

Мурожаат учун: (90) 245-18-10

ШУННГДЕК, ТАНЛОВДА ЗОНАФАР КЎШИМЧА НОМИНАЦИЯЛАР  
БЎЛИЧА ҲАМ ҒОЛИБЛАР АНИҚ ЛАНАДИ.

Танлов ҳомийлари билан танишинг:

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ДЕМОКРАТИК ПАРТИЯСИ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ  
ҲУЗУРИДАГИ ЎЗБЕК ТИЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЖАМҒАРМАСИ

«МИЛЛИЙ  
ТИКЛАНИШ»  
ДЕМОКРАТИК  
ПАРТИЯСИНИНГ  
ИЖТИМОЙ-  
СИЙOSIY  
ГАЗЕТАСИ

JAMOATCHILIK KENGASHI:  
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,  
Abror PO'LATOV,  
Amriddin BERDIMURODOV,  
Akmal JUMABOYEV,  
Bahodir MAMATXONOV,  
Ibhom ABDULLAYEV,  
Ibrohim G'OFUROV,  
Iroda DADAJONOVA,  
Minhojiddin MIRZO,  
Nuriyman ABULXASAN,

Odiljon TOJIYEV,  
Olim O'SAROV,  
Otabek JIYANBOYEV,  
Ozodbek NAZARBEKOV,  
Ortiqali QOZOQOV,  
To'liqin TESHABOYEV,  
Feruza MUHAMMEDJANOVA,  
Xurshid DO'STMUHAMMAD,  
Sherzodxon QUDRATXO'JA,  
Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:  
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT  
MANZILI:

Toshkent shahri,  
Uchtepa tumani,  
Maqsud Shayxzoda  
ko'chasi, 1 A-uy.  
Gazeta tahririyat  
kompyuter markazida  
terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri  
tahririyat nuqtai  
nazaridan farq qilishi  
mumkin.

Gazetada Internet  
ma'lumotlari  
va suratlaridan  
foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy  
e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga  
qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:  
Abdug'affor OMONBOYEV,  
Mabhuba KARIMOVA  
NASHR UCHUN MAS'UL:  
Ma'murjon YO'LDOSHEV  
NAVBATCHI:  
Feruza XODJAYEVA  
DIZAYN GURUHI:  
Asilbek QUDRATOV,  
Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:  
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida chop etildi.  
Korxonaning manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi  
tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.  
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 263.  
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.  
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq  
Buyurtma: G – 321  
Bosishga topshirish vaqti 21:00.  
Topshirildi 03:45

Telefon:  
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456